



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRINING BUYRUG‘I

17«aprel»2024 yil.

01/601-A/F-son

O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirining 2024-yil 9-fevraldagi 01/189-A/F-son buyrug‘iga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligida xarid qilish hujjatlarini ishlab chiqish, tashkil etish bo‘yicha ishchi guruhi va xarid komissiyasi tarkibini qayta ko‘rib chiqish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi sport vazirining 2024-yil 9-fevraldagi “Davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish to‘g‘risida”gi 01/189-A/F-son buyrug‘iga o‘zgartirishlar kiritish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limining 2024-yil 13-apreldagi 01-22/89-son bildirishnomasi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi sport vazirining 2024-yil 9-fevraldagi “Davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish to‘g‘risida”gi 01/189-A/F-son buyrug‘ida:

- 1-ilovasi mazkur buyruqning 1-ilovasiga muvofiq tahrirda bayon etilsin;
- 2-ilovasi mazkur buyruqning 2-ilovasiga muvofiq tahrirda bayon etilsin;
- 3-ilovasi mazkur buyruqning 3-ilovasiga muvofiq tahrirda bayon etilsin.

3. Ishchi guruhlari va xarid komissiyasiga:

a) sport maktablari va ommaviy sport tadbirlariga tovarlar (ish va xizmatlar)ni ehtiyoji, texnik talablari, narxlarini shakllantirish hamda xarid qilish hujjatlarni sifatli ishlab chiqish;

b) vazirlik va uning hududiy boshqarmalari, oliy va professional ta‘lim muassasalari, terma jamoalarga tovarlar (ish va xizmatlar)ni ehtiyoji, texnik talablari, narxlarini shakllantirish hamda xarid qilish hujjatlarini o‘z vaqtida ishlab chiqishni tashkillashtirish;

c) tovarlar (ish va xizmatlar)ning xaridini shafof tashkil etish va o‘tkazish vazifalari yuklatilsin.

4. Devonxona (**S.Rasulova**)ga mazkur buyruq bilan vazirlikning tegishli boshqarma va bo‘limlarini tanishtirish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosarlari M.Ismailov va Sh.Maxmudov zimmalariga yuklatilsin

Vazir



A.Ikramov

O‘zbekiston Respublikasi
sport vazirining
2024-yil ____ - apreldagi
____-A/F-son buyrug‘iga
1-ilova

“O‘zbekiston Respublikasi
yoshlar siyosati va sport vazirining
2024-yil 9-fevraldagi 01/189-A/F-son
buyrug‘iga 1-ilova

**Sport maktablari va ommaviy sport tadbirlariga tovarlar
(ish va xizmatlar)ni ehtiyoji, texnik talablari, narxlarini shakllantirish
hamda xarid qilish hujjatlarni ishlab chiqish bo‘yicha
ISHCHI GURUHI TARKIBI***

T/r	Ismi va familiyasi	Lavozimi
1.	Lavozimiga ko‘ra	Sport vaziri o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari**
2.	B.Ubaydullaev	Sport maktablari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruh rahbari o‘rinbosari
3.	M.Odinaev	Davlat xaridlarini tashkil yetish bo‘limi bosh mutaxassisi, ishchi guruh kotibi
Ishchi guruh a‘zolari		
4.	U.Jo‘raev	Sport maktablari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi
5.	F.Abdukarimov	Etno sport turlarini rivojlantirish va sport normativlarini o‘tkazish bo‘limi boshlig‘i
6.	D.Shamsiddinov	Ommaviy sportni rivojlantirish bo‘limi bosh mutaxassisi

Izoh: *Ishchi guruh tarkibiga kiruvchi shaxslar boshqa ishga o‘tgan taqdirda tegishli lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

** **Ishchi guruh rahbari** boshqa ishga o‘tgan taqdirda yoki xizmat safarida bo‘lgan davrda tovarlar (ish va xizmatlar)ni ehtiyoji, texnik talablari, narxlarini shakllantirish hamda xarid qilish hujjatlarini **Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari** tasdiqlaydi.”.

O‘zbekiston Respublikasi
sport vazirining
2024-yil ____ - apreldagi
____-A/F-son buyrug‘iga
2-ilova

“O‘zbekiston Respublikasi
yoshlar siyosati va sport vazirining
2024-yil 9-fevraldagi 01/189-A/F-son
buyrug‘iga 2-ilova

**Vazirlik va uning hududiy boshqarmalari, oliy va professional ta’lim muassasalari, terma jamoalarga tovarlar (ish va xizmatlar)ni ehtiyoji, texnik talablari, narxlarini shakllantirish hamda xarid qilish hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha
ISHCHI GURUHI TARKIBI***

T/r	Ismi va familiyasi	Lavozimi
1.	Sh.Maxmudov	Sport vaziri o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari
2.	M.Arzikulov	Oliy va professional ta’lim muassasalari bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari - ishchi guruh rahbari o‘rinbosari
3.	M.Odinaev	Davlat xaridlarini tashkil yetish bo‘limi bosh mutaxassisi, ishchi guruh kotibi
Ishchi guruh a‘zolari		
4.	H.Toshmatov	Olimpiya va kompleks musobaqalari dasturiga kiritilgan sport turlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i
5.	A.Karimov	Olimpiya va kompleks musobaqalari dasturiga kiritilgan sport turlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘limi bosh mutaxassisi
6.	Z.Majidov	Paralimpiya, qishki, ekstremal va noolimpiya sport turlari bo‘limi bosh mutaxassisi

Izoh: * *Ishchi guruh tarkibiga kiruvchi shaxslar boshqa ishga o‘tgan taqdirda tegishli lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*

** *Ishchi guruh rahbari boshqa ishga o‘tgan taqdirda yoki xizmat safarida bo‘lgan davrda tovarlar (ish va xizmatlar)ni ehtiyoji, texnik talablari, narxlarini shakllantirish hamda xarid qilish hujjatlarini Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari tasdiqlaydi.*”

O‘zbekiston Respublikasi
sport vazirining
2024-yil ____ -apreldagi
_____ - A/F -son buyrug‘iga
3-ilova

“O‘zbekiston Respublikasi
yoshlar siyosati va sport vazirining
2024-yil 9-fevraldagi 01/189-A/F-son
buyrug‘iga 3-ilova

**Tovarlar (ish va xizmatlar)ni xaridini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha
XARID KOMISSIYASI TARKIBI***

T/r	Ismi va familiyasi	Lavozimi
1.	M.Ismailov	Sport vaziri o‘rinbosari, <i>xarid komissiyasi raisi</i>
2.	Sh. Momindjonov	Vazirning davlat tili bo‘yicha maslaxatchisi, <i>xarid komissiyasi raisi o‘rinbosari</i>
3.	F.Halimov	Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i, <i>xarid komissiyasi kotibi**</i>
<i>Xarid komissiyasi a‘zolari</i>		
1.	M.Yunusov	Paralimpiya, qishki, ekstremal va noolimpiya sport turlari bo‘limi boshlig‘i
2.	F.Turdiyev	Oliy va professional ta‘lim muassasalari bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i
3.	Lavozimiga ko‘ra	Ishlar bo‘limi boshlig‘i
4.	N.Shoymardonov	AKTni joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi boshlig‘i
5.	A.Nizametdinov	Oliy sport yutuqlari boshqarmasi bo‘limi boshlig‘i
<i>Ekspertlar */**/***/****</i>		
1.	J.Akramov	Sport o‘yinlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi direktori
2.	E.Tajimov	Sportning qishki va murakkab texnik turlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi direktori
3.	M.Rahmatxo‘jaev	Sport yakkakurashlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi direktori
4.	S.G‘ulomnazarov	Engil atletika bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi direktori

Izoh: * Xarid komissiyasi va ekspertlar tarkibiga kiruvchi shaxslar boshqa ishga o‘tgan taqdirda tegishli lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi;

** Ovoz berish huquqiga ega emas.

*** Ekspertlar xarid ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan mahsulotlarni o‘rganib chiqish va uning sifati hamda belgilangan talablarga mosligi bo‘yicha xulosalar tayyorlaydi.

**** Ekspertlar tarkibiga tegishli vazirlik va idoralardan mutaxassislar jalb etilishi mumkin.”.